

SUN'IY INTELEKT ASOSIDAGI ARBITRAJ VA MEDIATSIYA TIZIMLARI

Ergashova Shahodat Sirojiddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti

Annotatsiya: *hozirgi kunga kelib sun'iy intellekt kirib bormagan sohani uchratish qiyin va albatta bu yaxshi chunki u insonlarga o'z sohasida yangi imkoniyatlar ochib vaqtlarini yana ham samaraliroq qilishiga yordam berayapti. Shuning uchun ushbu maqolada sun'iy intellektning arbitraj va mediatsiya sohasidagi o'rni, kelgusidagi imkoniyatlari, qulayliklari va kamchiliklari haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari Xalqaro miqyosda mavjud bo'lgan platformalar bilan tanishish orqali xalqaro tajribalari o'rganiladi. Shuningdek O'zbekistonda mavjud bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar va faoliyat yuritayotgan saydlari tahlil qilinadi. Ma'lumotlar tahlili jarayonida . Tahlil jarayonida davlat tomonidan qo'llab- quvvatlanayotgan innovatsion loyihalar, ularning ishlash prinsiplari va murojaatchilar uchun afzalliklari birma-bir ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, arbitraj, mediatsiya, yurisdiksiya, arbitr, nizo, mediator, arbitraj sudi, kelishuv bitimi, xalqaro tijorat arbitraji, ODR, ADR, TIAC, ICDR.*

Kirish

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalar jadal ravishda rivojlanib bormoqda va bu jarayonda sun'iy intellektning ham o'rni katta. Sun'iy intellekt texnologiyalari robototexnika yoki boshqa ta'limiy sohalarga kirib borgani kabi yuridik sohaga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Masalan hozirgi kunga kelib xalqaro tijorat sudlari ham sun'iy intellektidan foydalanmoqda. Umuman olganda arbitraj va mediatsiya sohasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, arbitraj alternativ nizolarni hal qilishning bir turi (ADR) bo'lib, unda nizoning taraflari o'z ishini

sudga olib borish o'rniga bittagina uchinchi tomon arbitri (lar) ko'rib chiqishga rozi bo'lishadi. Qolgan sud jarayonlaridan ko'ra aynan arbitraj ko'p tanlanadigan sud jarayoni hisoblanadi, chunki u odatda tezroq, kamroq rasmiy va maxfiyroq bo'ladi.¹ Arbitraj juda ko'p sohalarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan sud jarayonidir, shu o'rinda xalqaro tijoratda ham arbitraj keng ko'lamda afzal ko'rilgan sud jarayoning bir turidir. Xalqaro tijorada arbitrajni afzaligi shundaki, u turli mamlakatlardan kelgan tomonlarga turli huquqiy tizimlar bo'lganligi uchun ularga bog'liq bo'lmagan holda nizolarni hal qilish imkonini beradi. Mediatsiya arbitrajdan farq qiladi, chunki u majburiy emas. Arbitraj instituti arbitraj uchun qoidalar bilan bir qatorda mediatsiya uchun ham qoidalami ta'minlaydi.² Mediatsiya an'anaviy sud jarayoniga muqobil bo'lib, nizolarni yanada tez va samarali hal qilish imkonini beradi.

ODR tushunchasi 2016-yilda "Nizolarni onlayn hal qilish bo'yicha texnik reglament"ga muvofiq fuqarolik muomalasiga kiritilgan. Shu bilan birga, ushbu hujjatda nizolarni onlayn hal qilish vositachilik, muzokaralar yoki arbitraj (arbitraj) yoki ushbu uchta yondashuvning kombinatsiyasidan iborat ekanligi qayd etilgan.

Ushbu maqolada Sun'iy intellektning arbitraj va mediatsiya sohasidagi tahlili uchun bir necha metodologik yondashuvlar qo'llaniladi. Birinchi navbatda, tadqiqot sifatida hujjatlarni tahlil qilish metodi qo'llaniladi. Ushbu metod orqali Xalqaro dasturlar va O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan qonunlar, qarorlar va davlat dasturlari, shuningdek, Sun'iy intellekt sohasidagi normativ hujjatlar o'rganiladi. Hujjatlarni tahlil qilish, mavzuni chuqurroq tushunish va huquqiy asoslarni yaqindan aniqlash imkonini beradi.

Eng asosiysi ushbu maqolada hozirda Xalqaro arbitraj sudi sohasiga aloqador har bir platforma muhokama qilinadi. Ularning ishlash bosqichlari, murojaatchilarga qanday manfaat keltirishi, ular qaysi platforma orqali o'zlarini qiynayotgan qaysi masalalariga huquqiy javob topishni bilib oladilar. Shuningdek, platformalarning ishlash funksiyalari, ulardan foydalanish usullari, tahlil qilinadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ushbu ish faqat Xalqaro sohadagi amalga oshirilayotgan platforma va dasturlari bilan chegaralanibgina qolmay, O'zbekistonda bu sohani qanday rivojlantirish bo'yicha takliflar ham beradi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida SWOT tahlil metodologiyasi qo'llaniladi. Ushbu usul yordamida sun'iy intellektning arbitraj va mediatsiya sohasidagi kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavflari aniqlanadi. SWOT tahlili, mavjud xalqaro va davlat dasturlarini baholash va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun zarur bo'ladi.

Mazkur tadqiqot ishi arbitraj sudlarining kamchiliklarni ochib berish orqali, ularni samarali faoliyat ko'rsatishiga doir o'z takliflarini ilgari suradi.

Xalqaro arbitrajda sun'iy intellekt (AI) foydalanishning asosiy omillari (drayverlari):

- tomon va maslahatchi vaqtini tejash (54%),
- xarajatlarni kamaytirish (44%)
- inson xatosini qisqartirishdan (39%).

Xalqaro arbitrajda sun'iy intellekt (SI) yanada keng foydalanishga to'sqinlik qiluvchi asosiy muammolar:

- xatolar va tarfakashlik (noto'g'ri xulosalar) haqidagi xavotirlar (51%),
- maxfiylik xavfi (47%),
- tajribaning yetishmasligi (44%)

- huquqiy tartibga solishdagi boʻshliqlar (38%) hisoblanadi.⁴

Onlayn arbitraj jarayoni an'anaviy arbitraj jarayonidan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Onlayn arbitraj mexanizmi onlayn va an'anaviy arbitrating kombinatsiyasi degan umumiy fikr notog'ri hisoblanadi. Bu turdagi arbitraj o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Agar arbitraj onlayn tarzda o'tkazilsa, tomonlar elektron pochta orqali qonunni tanlash masalasini muhokama qilishlari, ular tomonidan raqamli imzolanadigan arbitraj bitimini tuzishlari va arbitraj muhokamasi o'tkaziladigan geografik joylashuvini aniqlashlari, arbitr tomonidan imzolanadigan qaroming joyini belgilash kabi harakatlar onlayn tarzda amalga oshirishlari mumkin. Onlayn arbitraj, ayniqsa tomonlar uzoqda joylashgan joyda qulay va samaralidir.⁵

ODR (Onlayn Nizolarni Hal Qilish)ning asosiy muammolaridan biri – bu texnologiyani yaxshi bilmaydigan yoki undan foydalana olmaydigan (tech-savy bo'lmagan) odamlarning adolatga erishish imkoniyati cheklanganligidir. ODR tizimi ishtirokchilardan ushbu texnologiyani bilishni va undan samarali foydalanishni talab qiladi. Texnologiyadan bexabar shaxslar uchun bu jiddiy to'siq bo'lib, ular jarayonda to'laqonli ishtirok eta olmaydilar.

ODR bilan bog'liq yana bir qiyinchilik – bu shaffoflikning yetishmasligi va javobgarlikning pastligidir. ODR asosan o'z-o'zini tartibga solishga tayanadi, bu esa tizimning potentsial suiiste'mol qilinishiga yo'l ochishi mumkin. Jarayonni mustaqil uchinchi tomon tekshirmasligi sababli, manfaatlar to'qnashuvi yoki firibgarlik (yoki manipulyatsiya) xavfi paydo bo'lishi mumkin.

ODR.com jamoasi ilk bor 1999-yil Online Resolution sifatida ish boshlagan va 2003-yil —ODRIndia||ga asos solingan. Jamoa rahbarlari 2001-yilda

sohadagi ilk kitoblardan biri bo‘lgan —Online Dispute Resolution for Businessni yozgan.

Jamoaning tajribasi yuzlab loyihalar va yigirma yillik amaliy ish davomida rivojlangan. Ularning eng katta yutug‘i bu - 2006-yilda eBay va PayPal uchun dunyodagi eng yirik ODR tizimini yaratgan. ODR.com har yili 60 milliondan ortiq nizoni hal qiladi, bu esa butun AQSh fuqarolik sud tizimida hal qilinadigan ishlardan ko‘proq ko‘rsatkichdir. Nizolarning 90% i faqatgina dasturiy ta‘minot yordamida, inson aralashuvisiz hal etiladi. Barcha ishlarning 50% i esa nizolashuvchi tomonlarning o‘zaro kelishuvi bilan yakunlanadi. Bu jamoa 2011-yilda eBay tarkibidan o‘zining birinchi kompaniyasini ajratib olgan va 2017-yilda sotilishidan oldin uni dunyodagi eng yirik ODR provayderi darajasiga ko‘targan.

ICDR transchegaraviy (xalqaro) nizolarga duch kelgan korxonalar va tashkilotlar uchun global nizolarni hal qilish yechimlarini yetkazib beruvchi yetakchi tashkilot hisoblanadi. AAA ning 95 yildan ortiq tajribasiga tayanib, ICDR boshqaruv tizimi xalqaro muqobil nizolarni hal qilish (ADR) xizmatlarini taqdim etadi. Bu xizmatlar vaqt va xarajatlarni tejash bilan birga, sinovdan o‘tgan, malakali hakamlar va ilg‘or texnologiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

UAIPIT.com — bu Alikante Universiteti Huquq fakultetining Xalqaro Xususiyl Huquq kafedrasi professorlari tomonidan ilgari surilgan, Sanoat va Intellektual Mulk, Axborot Texnologiyalari qonunchiligi hamda Muqobil nizolarni hal qilish (mediatsiya) bo‘yicha xalqaro portalidir. U professionallar, tadqiqotchilar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

E-Arbitrator - bu shaxslar, bizneslar va tashkilotlar Arbitrator/Mediator topishi, o‘z ishlarini topshirishi va nizolarni butunlay onlayn hal qilishi mumkin bo‘lgan onlayn nizolarni muqobil hal qilish (ADR) platformasidir. E-Arbitrator

asosan transchegaraviy savdo bilan shug'ullanadigan va shu savdodan kelib chiqadigan nizolar masalalari bo'lgan bizneslarga xizmat ko'rsatishga qaratilgan.

2018-yil 5-noyabr kuni —O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzurida Toshkent xalqaro arbitraj markazini (TIAC) tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Prezidenti qarori imzolandi. 2019-yil aprel oyida Paris Arbitration Week da birinchi taqdimoti bo'lib o'tgan. Manfaatlar to'qnashuvi muammolarining oldini olish hamda xolislik, mustaqillik va betaraflikning saqlash maqsadida, markazda TIAC Arbitraj Sudi a'zosi, shuningdek, TIAC Direktori yoki TIAC Direktor o'rinbosari xizmat muddati davomida TIAC Arbitraj qoidalari bo'yicha hakam (arbitrator) sifatida ishtirok eta olmaydi degan qoida kiritilgan. TIAC Arbitraj Sudi toq sondagi taniqli hakamlar va arbitraj hamjamiyati a'zolaridan tashkil topadi. O'zbekiston fuqarolari TIAC Arbitraj Sudi a'zolarining 20 foizigacha qismini tashkil qilishi mumkin.

I. Xulosa

Xulosa qilib shuni aytganda, hozirgi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari arbitraj va mediatsiya jarayonlarida arbitr va advokatlar ishini yengillashtirish borasidagi funksiyalari bilan arbitraj va mediatsiya jarayonining ajralmas qismiga aylandi.

Uning murakkab qarorlarni qabul qilishidagi ijobiy jihatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- ratsional ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, bir tarafga og'ish holatlari (subyektivizm)ning kamayishi;
- keraksiz va ortiqcha sarfining oldini olish;
- eskirgan byurokratik apparat tuzilmasining o'zgarishiga olib kelishi;
- ba'zi yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda va boshqalar.

Sun'iy intellektning qaror qabul qilishida quyidagi ayrim salbiy ta'sirlari ham mavjud:

- qabul qilingan qaror yuzasidan yuridik yoki iqtisodiy jihatdan javobgarlik masalasini kim olishi;
- ish o'rinlarining qisqarishi;
- xakerlik va kiberjinoyatchilikning ortishi;
- javobgarlik va boshqaruvning muvofiq bo'lmashligi;
- insoniyatga nisbatan ekzistensial tahdidning yuzaga kelishi va boshqalar.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish borasida dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida sun'iy intellektni mamlakatimizda muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun —Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2023-2030-yillarda rivojlantirish Strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha anig vazifalar belgilab berildi, ular respublikada raqamlashtirish jarayonlarini yanada faollashtirish zarurligini qayd etmoqda.⁸

Hozirda bizda TIAC (Toshkent xalqaro arbitraj markazi) faoliyat olib borayapti, bu sayt orqali biz MDH va undan tashqarida yuzaga keladigan nizolarni bimalol hal qilishimiz mumkin. Bu platformada yuzdan ortiq malakali arbitratorlarning xizmatlaridan foydalanish mumkin. Shuning uchun ham xalqaro tijorat arbitaji tizimida yuqori malakali arbitrator va mediatorlarni ko'paytirish hamda ularning ishini tizimlashtirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Born, G. B. (2014). Recognition and enforcement of international arbitral awards (Chapter 26). In International commercial arbitration (2nd ed.). Kluwer Law International.
2. Akramov, A. A. (2023). Sun'iy intellektning xalqaro tijorat arbitrajida nizolarni hal qilishdagi ahamiyati [The importance of artificial intelligence in resolving disputes in international commercial arbitration]. Toshkent.
3. White & Case LLP. (2025, June 4). Arbitration and AI. Newste.